

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYA VAZIRLIGI**



TERMIZ MUHANDISLIK-TEKNOLOGIYA INSTITUTI

F.A.Alimova, B.SH.Primkulov, R.J.Xurramov

**KICHIK TUPROQ KANALI
ARAVACHANING KONSTRUKTIV SXEMA
VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

Termiz – 2023

УДК 338.25

ББК 330.35.01(075.9)

F.A.Alimova, B.SH.Primkulov R.J.Xurramov Kichik tuproq kanali aravachaning konstruktiv sxema va parametrlarini asoslash. Monografiya - Termiz, TMTI, 2023.-100b.

Monografiyada qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekishda tuproqqa umumiy ishlov beruvchi, energiya resurstejamkor texnologiyalar va ularni amalga oshiradigan texnik vositalarini qo‘llash zaruriyati asoslangan. Agregatlarning tuproqqa umumiy ishlov beradigan ishchi organlarning turini tanlash va ularning asosiy parametrlarini agrotexnik va energetik ko‘rsatkichlariga ta’siri, tuproqqa umumiy ishlov berish uchun mo‘ljallangan ishchi organlarni sinovlarini tezlashtiruvchi laboratoriya stendining asosiy parametrlarini asoslash bo‘yicha nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Monografiya qishloq xo‘jalik mashinalariga o‘rnatiladigan yani agregatlanadigan ishchi organlarni ish jarayoniga tayyorlash va yangi ishlab chiqilgan texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish tajriba sinovlarini tezlashtirishga tayyorlashda energiya-resurstejamkor va unumi yuqori mashinalarning ish sifatini baholash sohasidagi ilmiy xodimlar va mutaxassislar uchun mo‘ljallangan, ushbu yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar olib borayotgan magistrantlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Termiz muhandislik-texnologiya instituti Kengashining 2023-yil 2/4-1- sonli qarori bilan tavsiya etilgan.

Retsenzentlar: t.f.d., k.i.x. A.A.Ibragimov

t.f.f.n., dots. N.N.Omonov

Termiz muhandislik-texnologiya instituti, 2023 y.

F.A.Alimova, B.SH.Primkulov. R.J.Xurramov

ISBN 978-9910-7303-4-4

© F.A.Alimova, B.SH.Primkulov, R.J.Xurramov 2023

© «Ilm ziyo zakovat» 2023

MUNDARIJA		
	KIRISH.....	5
I-BOB.	O‘RGANILAYOTGAN MUAMMONING HOZIRGI HOLATI VA TADQIQOT VAZIFALARI.....	9
1.1-§.	Ishchi organlarni sinovchi stendlarining hozirgi holati.....	9
1.2-§.	Kichik tuproq kanali aravacha stendining mavjud texnologiyalari va texnik vositalarining tahlili.....	13
1.3-§	Kichik tuproq kanali aravachasi stendilari parametrlari bo‘yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili.....	16
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	24
II-BOB.	KICHIK TUPROQ KANALI ARAVACHASI SXEMA VA PARAMETRLARINI ASOSLASH BO‘YICHA NAZARIY VA EKSPERIMENT TADQIQOTLAR.....	25
2.1-§.	Dalalar tuprog‘ining fizik-mexanik xossalari.....	25
2.2-§.	Kichik tuproq kanali aravachasiga ulanadigan ishchi organlarga qo‘yiladigan agrotexnik talablar.....	29
2.3-§.	Kichik tuproq kanali aravacha stendining sxema va parametrlarini asoslash bo‘yicha matematik statistik eksperiment tadqiqotlar olib borish natijalari.....	75
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	77
III.BOB	. KICHIK TUPROQ KANALI ARAVACHA STENDI KINEMATIK SXEMASINI HISOBLASH VA ELEKTRODVIGATEL TANLASH.....	78
3.1-§.	Kichik tuproq kanali aravacha yuritmasi uchun elektrodvigatel tanlash.....	79
3.2-§.	Kichik tuproq kanali aravacha stendining kinematik parametrlarini aniqlash.....	82
3.3-§.	Kichik tuproq kanali aravachasi g‘ildiraklarini dumalab ishqalanishga hisoblash.....	85
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	89
	Xulosa.....	90
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	91

KIRISH

Hozirgi vaqtda jahonda va yurtimizda yerlarni ekishga tayyorlashda qo'llaniladigan energiya-resurstejamkortexnologiyalar ish unumi, sifati yuqori bo'lgan universal agregatlarni ishlab chiqish va qo'llash yetakchi o'rinni egallamoqda. «Hozirda dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini ekish uchun har yili 1,6 mlrd. gektar maydonga ishlov berilishini» [1] hisobga olsak, yerlarni ekishga tayyorlash va ekishda energiya-resurstejamkor, ish sifati va unumi yuqori kombinatsiyalashgan mashinalarni joriy etish muhim vazifalardan hisoblanmoqda. Bu borada rivojlangan xorijiy davlatlarda, jumladan AQSh, Germaniya, Angliya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa davlatlarda ma'lum yutuqlarga erishilgan bo'lib, yerlarni ekishga tasmali tayyorlash va ekish texnologik jarayonlarini amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan agregatlarni ishlab chiqish va qo'llashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu omillar hisobga olingan holda yangi texnologiyalarni sinov jarayonlarini terzlashtirishga qaratilgan hisoblanadi.

Jahonda takroriy ekinlar ekish uchun yerlarni tayyorlashning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi namunalarini yaratish, mavjud mashinalarni ish jarayonida resurstejamkorligini ta'minlash maqsadida takomillash-tirishning ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda dalalarni bir o'tishda ekish uchun tayyorlashning resurstejamkor texnologiyasini yaratish, texnologik jarayonni sifatli amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan agregatning sxemasini ishlab chiqish va ish organlarini tuproq bilan o'zaro ta'sirlashishda resurstejamkorlikni

ta'minlaydigan parametrlarini asoslash bo'yicha maqsadli ilmiy izlanishlarni olib borish dolzarb masalalardan hisoblanmoqda.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo'jalik ekinlarini ilg'or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo'jalik mashinalarini ishlab chiqish va qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Respublikamizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni keskin rivojlantirishni ta'minlashga katta e'tibor berilmoqda, jumladan qishloq xo'jaliklarining barcha tarmoqlarida chuqur iqtisodiy islohatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi xalqiga murojatnomasi" 2021-yil 27-fevraldagi PQ-5009-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish" chora-tadbirlari to'g'risidagi, PQ-3117-sonli 07.07.2017-yildagi "Qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohasida ilmiy teknikaviy salohiyatni yanada rivojlantirish" to'g'risidagi [1; 2] Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu qarorlar va farmonlarda keltirilgan vazifalarni bajarishda yerlarni ekishga tayyorlash va ekish bo'yicha barcha texnologik jarayonlar (tuproqni yumshatish va dala yuzasida mayin tuproq qatlamini hosil qilish hamda ekish)ni qo'shib bajaradigan agregat, ishlab chiqish va ishchi qismlarining yuqori ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlaydigan parametrlarini asoslash muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi

PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini

tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi [3,4].

Tuproqqa minimal ishlov beradigan va qishloq xo'jaligi mashinalar va ularning ish organlari parametrlarini asoslash hamda tuproq bilan o'zaro tasirlashish jarayonlarini o'rganish bo'yicha xorijda Zvolinskiy V.N, Mosyakov M.A, Nikolaenko N.Y, Ulanov Aleksandr Sergeevich, Kupryashkin Vladimir Fedorovich, Naumkin Nikolay Ivanovich, Timoxin Sergey Viktorovich, Gusev Aleksandr Yurevich, Rustamboev SH.Y va boshqalar shug'ullanishgan. Ushbu yo'nalishda yurtimizda kichik tuproq kanali aravachasini takomillashtirish va konstruktiv parametrlarni ilmiy texnik yechimlari bo'yicha, ishlab chiqarishda qator tadqiqot ishlari Alimova F, Mamasobirov Umid, Aslan Hamidov va boshqalar o'rgangan. Bu tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan mashina va qurilmalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanib kelinmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda muallif tomonidan tuproqqa sayoz, o'rta va chuqur ishlov ishlov beradigan ishi organlarni sinovdan o'tkazishga mo'ljallangan stendning konstruktiv sxemasi ishlab chiqilgan va ularning texnologik ish jarayoni asoslangan;

Kichik tuproq kanali aravachasining tashqi o'lchamlari va ishlash jarayon energiya sarflashini hisobga olgan holda aniqlangan;

Kichik tuproq kanali aravachasining ishchi organlarning o'rnatilish tizimi va unga qo'yiladigan qarshilik kuchlari hisoblashda uning tashqi o'lchamlari hisobga olgan holda asoslangan;

Kichik tuproq kanali aravacha stendi agregatning tuproqqa ishlov beradigan ishchi organlari parametrlarining talab darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlaydigan maqbul qiymatlari uning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlarini ta'sirini baholovchi regressiya tenglamalarini yechish orqali aniqlangan.

I.BOB. O'RGANILAYOTGAN MUAMMONING HOZIRGI HOLATI VA TADQIQOT VAZIFALARI

1.1-§. Respublikamizda takroriy ekinlar urug'larini ekish uchun tuproqni tayyorlashning hozirgi holati

Ma'lumki, yerlarga asosiy va ekish oldidan ishlov berish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida eng ko'p energiya talab etadigan jarayon bo'lib Respublikamizda qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishga sarflanayotgan umumiy energiyaning 40-50 foizini tashkil etadi. Shu sababli yerlarga asosiy va ekish oldidan ishlov berishda energiya sarfini kamaytirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ko'plab miqdorda yonilg'i-moylash materiallarini tejab, mehnat sarfi va boshqa xarajatlarni kamaytirib, mashinalar hamda ular ishchi organlarining chidamliligini oshirish imkonini beradi. Natijada yetishtirilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirishga erishiladi. Respublikamiz sharoitida yerlarga ishlov berishda energiya-resurstejamkorlikni ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri kombinatsiyalashgan agregatlarni qo'llashdir [8].

Hozirgi paytda oziq-ovqat taqchilligi va ocharchilikni hisobga olgan holda yetishtiriladigan mahsulotlar tez va sifatli bo'lishligi talab qilinmoqda, bu esa dalalarni ekinga tayyorlash alohida agregatlar bilan bajariladigan yerlarni o'g'itlash, shudgorlash, shudgorlashda hosil bo'ladigan notekisliklarni tekislash, chizellash, boronalash, molalash va pushta olish kabi agrotexnik tadbirlardan tashkil topgan bo'lib bulardan chizellash, boronalash tadbirlari ikki - uch martadan bajariladi. Tuproqqa daladan bunday ko'p marotaba o'tib ishlov berish mehnat, energiya va yonilg'i sarfini oshishi, uning strukturasini buzulishi hamda ortiqcha

zichlanishiga olib keladi. Bu esa yangi yaratilishi lozim bo'lgan va yaratilgan ishchi organlarni sinovlarini tezlashtirishni talb etadi. Bu esa laboratoriya va tajriba sinovlarini o'tkazish kamchiliklarni bartaraf etishga yangi turdagi sinov mashinalariga bo'lgan talabni ortiradi, ilmiy tadqiqot ishlarini kichik tuproq kanali aravachasining yangi zamonaviy takomillashgan konstruksiyani ishlab chiqishga undaydi. Yana shuni ta'kidlash lozimki so'ngi yillarda butun jahonda yerlarga ag'darmasdan va minimal ishlov berishuvchi agregatni dala sinovlaridan laboratoriya sinovlariga o'tkazish bo'yicha barcha texnologik jarayonlarni qo'shib bajarish keng tarqalmoqda. [7; 23-31-b., 8; 22-30-b.]. Ushbu ta'kidlanganlardan kelib chiqqan holda yurtimizda va xorijiy davlatlarda bu bo'yicha qilingan ishlar va ularning tajribalarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Minimal yoki qisqartirilgan ishlov berish tizimida tuproqqa ishlov berish va ekinlarni ekishning har qanday usulini plug bilan shudgorlashsiz, agregatlar dala bo'ylab kam o'tishini va dala yuzini chuqur yumshatmasdan ishlov berishni ko'zda tutadi. [9; 35-44 b.].

U yangi tipdagi stend bo'lib dalaga ishlov sayoz va chuqur ishlov ishchi organlarni sinovchi yangi tizimini yaratdi. Bir oz vaqt o'tgach, Ukraina va Rossiya federatsiyasi, Belarussiyada yangi sinov stendlari bo'yicha bir qator muvaffaqiyatli tajribalar o'tkazildi. XXI-asrning boshiga kelib jahon qishloq xo'jaligida yangi turdagi qishloq xo'jaligi yerga ishlov berish amaliyotida ularning qisqarishiga qadar keskin burilish yuz berdi. O'zini o'zi boshqarish deb nomlangan ishlov berish g'oyalari tarqaldi, bu asosan agregatlarning texnik holati, harakatlantirgichlarining tuproqqa zararli ta'sirini kamaytirish va samarasiz xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishdir. Dala sharoitida

sinovlarni kamaytirish sinov natijalarini olish sinovdagi agregatlarning kombinatsiyalashgan ishchi organlarni ham sinovdan o'tkazishni talab qila boshladi. Sinash stendlari ham takomillashgan ishchi organlar kabi yangi tipdagi zamonaviylashgan samaradorligi yuqori bo'lgan sinash stendlari yaratilishi diqqatga sazovordir. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida zamonaviy yerga ishlov berish balki o'g'itlash dorilash ishlarini amalga oshirish agregatlarini sinov jarayonlari ham yangi tipga o'tganini bemalol aytish mumkin. Bu esa hosildorlikni oshishi bilan ko'rish mumkin.[9; 66-69 6.].

Birinchi usul. Oziq-ovqat va sabzavot ekinlarini (mosh, makkajo'xori, soya va boshqalar) yetishtirish uchun yig'im-terimdan so'ng dala 25-30 sm chuqurlikda shudgorlanadi, shundan so'ng borona va tekislagichlar bilan ishlov beriladi. Agar shudgorlashdan keyin tuproq yuzasida katta kesaklar qolsa, dalaga qo'shimcha ravishda frezali moslamalar bilan ishlov beriladi. Ba'zi hollarda, masalan, dala begona o'tlar bilan qoplangan bo'lsa, shudgorlash ikki yarusli pluglar yordamida amalga oshiriladi.

Barcha holatlarda, shudgorlash bir vaqtning o'zida boronalash bilan birga amalga oshirilishi kerak.

Ikkinchi usul. G'alla yig'ishtirib olingandan keyin yem-xashak ekinlarini yetishtirish uchun tuproqning holatiga qarab, dalaga chizel-kultivatorlar, diskli boronalar yoki frezali moslamalar bilan 12-16 sm chuqurlikka ishlov beriladi.

Uchinchi usul. G'alla yig'ishtirib olingandan keyin makkajo'xorini silosga va boshqa ozuqa ekinlarini yetishtirish uchun yerlarga agregatning bir o'tishida tasmali ishlov berish bilan birga ekish tadbiri amalga

oshiriladi. Ushbu texnologik jarayonda urug'larni ekish uchun kifoya qiladigan kenglik va chuqurlikka ega tor tasmalarga (asosan paxta va boshqa ekinlardan saqlanib qolgan pushtalarning ustiga) ishlov beriladi. Qatorlar orasidagi oraliqlarga ishlov berilmaydi. Natijada, mashinaning bir birlik qamrash kengligiga to'g'ri keladigan tortish qarshiligini kamaytirish va shunga mos ravishda uning ish unumini oshirish, mehnat sarfi va vositalarini kamaytirish mumkin bo'ladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, tadqiqot ob'ekti kichik tuproq kanali va ishchi organlari ular amalga oshiradigan texnologik jarayoni qabul qilindi.


1.2-§. Kichik tuproq kanali aravacha stendining mavjud texnologiyalari va vositalarining tahlili

Dunyoda tabiiy resurslarning kamayishi, texnologik rivojlanishdagi hozirgi holat qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining samaradorligi va barqarorligini taminlash va yangi mustahkamliligi, bardoshliligi, ishonchliligi chidamliligiga yuqori talablarni qo'ymoqda. Bunday sharoitlarda tabiiy resurslardan oqilona va umumli foydalanish, resurstejamkor texnologiyalarini umumiy samaradorligini oshirishning eng muhim yo'llaridan biri inovatsion texnologiyabop texnologiyalarni qo'llash hisoblanadi. Kichik tuproq kanali aravachalarining hozirgi kunda takomillashgan zamonaviy turlari mavjud bo'lib ular asosan;

1. Yakka (yani bitta ishchi organni sinovdan o'tkazuvchi),
2. Universal,
3. Kombinatsiyalashgan ishchi organlarni sinovchi stendlardir.

Har bir turdagi stendning ishlash tartibi bir biriga o'xshash bo'lib, bunda ishchi organlarninng qamrov kengligi ishlash uzunligi va boshqarish

mexanizmlaridan farq qiladi. Stendlar o'tkazilishi kerak bo'lgan operatsiyalarning tez va samorador bo'lishini taminlash uchun yaratilgan bo'ladi. Bu esa sarf harajatlarni kamaytiradi va vaqtni tejaydi. Hozirgi vaqtgacha yaratilgan kichik tuproq kanali aravacha stendlari asosan yaratilgan ishchi organlarni sinash va tajribadan o'tkazish uchun yasalgan bo'ladi bu tahlil qilish jarayonida ko'rish mumkin. Kichik tuproq kanali aravacha stendlari relesda harakatlanuvchan metal arqon yordamida tortiladigan yoki elektrdvigatel yordamida harakatlantiriladigan yoki bo'lmasa qo'l kuchi yordamida harakatlantiriladi. Ekish muddati juda qisqaligi, tuproqqa bir o'tishda ishlov berib ekadigan texnik vositalarning respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga moslashmaganligi, qo'llanilib kelayotgan texnikalar (plug, chizel, kultivator) tuproqqa ishlov berishda yonilg'i moylash materiallari sarfini ko'p talab qilishi va vaqt sarflanishi, tuproqning nam qatlamini dala yuzasiga chiqarilishi oqibatida yozning issiq kunlarida katta miqdordagi suv bug'lanishi sababli bu maydonlardan foydalanish samarasining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Tabiiy resurslarning tobora kamayib borishi ushbu resurstejamkor texnologiyalarning keng qo'llanilishini talab etadi. Shuning uchun qishloq xo'jaligi dala ekspriment va labararatoriya sinovlarini tezlashtirishni talab qiladi, yangi yaratilgan stendlar kam xarajatli va tejamkor bo'lishi lozim. Yangi yaratilgan yoki loyihalangan texnologiyalarni tajriba yo'li bilan sinovdan o'tkazilish jarayonlarini tezlashtirish kerakli ma'lum. O'tkazilgan ko'pgina ilmiy-tadqiqot ishlarida shudgorlash, zichlash va ekish jarayonlari mos ravishda qo'llanilgan hududlarda ekinlarning hosildorligini oshirish va bo'sh qolgan dalalarni ikkinchi ekinga tayyorlashga qaratilgan yangi tipdagi agregatlar, ishchi organlarning



1.1-rasm. Ishchi organlarning tasnifi


yaratilishi hosildorlik balki ish unumdorligiga ham ta'sir qiladi. Masalan

bug'doy hosili tavsiya etilgan texnologiya qo'llanilganda 3,1 s/gektar ga yuqori bo'lishi aniqlangan. Shu bilan birga, mehnat sarfi mos ravishda 6,64 va 8,72 kishi soat/ga ni tashkil etgan. Tuproqqa nol ishlov berish texnologiyalarida har xil turdagi ishchi organlardan foydalanib yangi kombinatsiyalashgan agregatlar ishlab chiqarilmoqda. Tuproqqa nol ishlov berish agregatlari ishchi organlarining tasnifi 1.1-rasmda keltirilgan.

1.3-§. Kichik tuproq kanali aravachasi stendlari parametrlari bo'yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili

Dunyo davlatlarida operatsiyalarning mos keluvchanligi usullarini o'rganish va yerga ishlov berish agregatlarini yaratish bo'yicha katta ishlar olib borildi. Tadqiqot davomida operatsiyalarning mos keluvchanligi, ularning iqtisodiy, agrotexnik va energiya ko'rsatgichlariga ta'siri aniqlandi. Yangi turdagi agregatlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda hosildorlikning oshishi, ishlab chiqarish tannarxi va mehnat sarfining pasayishi aniqlandi. O'tkazilgan ko'pgina ilmiy-tadqiqot ishlarida shudgorlash, zichlash va ekish jarayonlari mos ravishda qo'llanilgan hududlarda ekinlarning hosildorligini oshirish va bo'sh qolgan dalalarni ikkinchi ekinga tayyorlashga qaratilgan yangi tipdagi agregatlar, ishchi organlarning yaratilishi hosildorlik balki ish unumdorligiga ham ta'sir qiladi. masalan bug'doy hosili tavsiya etilgan texnologiya qo'llanilganda 3,1 s/gektar ga yuqori bo'lishi aniqlangan. Shu bilan birga, mehnat sarfi mos ravishda 6,64 va 8,72 kishi soat/ga ni tashkil etgan. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, MDHning turli mintaqalarida turli ekinlarni yetishtirishda mos keluvchan turli hil texnologik operatsiyalarni bajaradigan kombinatsiyalashgan agregatlar ishlab chiqarilgan.

Laboratoriya tadqiqotlari stendning tuzilish uzatmalar qutisi, tishli dvigatel, qo'zg'alish tajriba kichik o'lchamli kartoshka qazish mashinasining ramkasi, ko'pirtirgich tipidagi kuchaytirgich, ekrandan iborat bo'lgan tuproq kanalida (1.2.1-rasm) amalga oshirildi. Optimallashtirish mezonni sifatida uyumni ajratishning to'liqligi (P , %) qabul qilindi. Uyumni ajratishning to'liqligi ko'plab omillarga bog'liq. Shu munosabat bilan laboratoriya ishlari ko'p faktorli eksperimentni laboratoriya qurilmasida rejalashtirish metodologiyasidan foydalangan holda amalga oshirildi. Ko'p faktorli eksperiment natijalarini shaxsiy kompyuterda qayta ishlagandan so'ng, kodlangan shaklda bog'liqligini tavsiflovchi ikkinchi tartibli adekvat matematik kutilish aniqlanadi.




1.3.1-Rasm Tuproq kanalida eksperimental laboratoriya o'rnatish:

1- tuproq kanali; 2 reduktor; 3-motorli reduktor; 4 - haydovchi; 5 - tajribali kichik o'lchamdagi kartoshka qazish mashinasining ramkasi; 6 qattiq turdagi kuchaytirgich; 7 – kartoshka tushirgich

Tajriba stendda o'tkazilib kartoshkani qazib olish uni tuproqdan tozalash ishlarini bajarishga to'liq moslashishi uchun qulay qilib yasalgan, daladagi kartoshka egatlari ularning qattiqligi zichligini o'lchash asboblari bilan jihozlangan.

Kartoshka kavlagichni sinovdan o'tkazuvchi kichik tuproq kanali aravachasi

Quyidagi kichik tuproq kanali aravacha stendi elektr toki yordamida ishlaydigan bo'lib quyidagicha jihozlangan polpastadagi harakat elektrodvigateldan olingan,



1.3.2-Rasm. Eksperimental qurilma bilan tuproq kanalining sxemasi: 1 - poli-pasta; 2, 5 - reduktor; 3, 7 - zanjirli haydovchi; 4, 6 – elektrmotor; 8 - haydovchi trolleybus; 9 - tirgak; 10 – ekish uchastkasi; 11 -yopishqoq lenta; 12 - moslashuvchan simi; 13 - boshqaruv paneli; 14 - tajriba urug'ini ekish mashinasi; 15 - ko'taruvchi




1.3.3-Rasm . Eksperimental oʻrnatish bilan tuproq kanali.

Qishloq xoʻjaligi mashinalarining ishchi organlarini sinash uchun eksperimental tuproq kanali maʼlum boʻlib, unda ramka, tuproqli truba va sinovdan oʻtgan ishchi organlarni mahkamlash uchun tenzometrik aravachalar mavjud boʻlib, turli xil qiyaliklarni taqlid qilish uchun truba ramkaga burilish bilan oʻrnatiladi va turli burchaklardagi ufqqa nisbatan burilish uchun gidravlik silindrlar, Tenzometr aravachasining haydovchisi kanalning oʻzida joylashgan boʻlib, ikkinchisi qiyshayganda agʻdarishning oldini olish uchun surish roliklari bilan jihozlangan.(1.3.3-rasm)

Taʼriflangan tajriba tuproq kanalida, hammasi J 1783349 A 1 yoʻriqnomalar bilan, uning ustiga tenzometr aravachasi oʻrnatilgan. Ramka ostida poydevorda chuqurcha mavjud boʻlib, unda prokat podshipniklariga disklari 2, oʻrnatilgan yuk koʻtaruvchi element 3 koʻrinishidagi ramka oʻrnatilgan, ishchi organlarni oʻngga chapga siljitish dastagi 4, burash dastagi 5, ramkani rostlovchi dastag 6, Buning ustiga tuproq bilan toʻldirilgan eksperimental ramka 7 oʻrnatilgan boʻlib ramka sirtida eksperimental urugʻ maydonchasi mahkamlangan. Aravacha elektr toki yordamida harakatlanganligi tufayli quvvat haydovchi stantsiya bloke 9

bilan jihozlangan, ishchi organlarni ko'tarish va tushirish uchun gidravlik uzatish tizimi 10 mavjud, g'ildiraklarni harakatga keltirish uchun zanjirli uzatma 11, Trosni o'rash uchun haydovchi baraban 12, elektr toki taminlanishi uchun kabel 13, bilan jihozlangan.



1.3.4-Rasm. Eksperimental o'rnatish sxemasi:

1-harakatlanuvchi trolleybus; 2- ramka; 3- gidravlik nasos; 4- gidravlik silindr; 5- elektr motor; 6-gidravlik bog'lovchi; 7 - eksperimental ramka; 8- eksperimental urug' maydonchasi; 9 – quvvat haydovchi stantsiya bloki; 10- gidravlik uzatish; 11 - zanjirli uzatma; 12- haydovchi baraban; 13- kabel;

Belarussiya respublikasi Minsk agrar universiteti olimlari tomonidan yaratilgan. Tuproqqa ishlov berishda ishchi organlarga (panjalar 3) o'zgaruvchan tuproq qarshilik kuchi P ta'sir qiladi, bu uning xususiyatlariga, shuningdek, ishlov berish chuqurligiga bog'liq (bu qarshilik kuchi dalaning turli qismlarida har xil bo'ladi). Xuddi shu chuqurlikdagi dala bo'ylab tuproqning zichligi har xil bo'lgani uchun kultivatorning S shaklidagi elastik tokchalarga o'rnatilgan panjalari tebranishni boshlaydi. Tuproqning qarshilik kuchlari natijasida elastik tirkak chetga chiqa boshlaydi. Shuning uchun stendlarning qattiqligini

oshirish uchun ularning konstruksiyasida regulyatorlar oʻrnatiladi. Ramkalar qattiqligining ortishi ularning ish uzunligining kamayishi hisobiga sodir boʻladi. Ramka tokchasiga va kultivator romiga ilmoqli elektr silindr yordamida biz dastagini harakatlantiramiz. Oʻz navbatida dastagi qattiq mahkamlangan novda qattiq oʻrnatiladi. regulyatorlar tomonidan raflarning qattiqligi ortadi. Tutqichni elektr silindrni romga nisbatan siljitgandan soʻng uning holati oʻzgarishsiz qoladi. Shunday qilib, tutqichni tuproqning xususiyatlariga qarab avtomatik ravishda turli burchaklarga oʻtkazish orqali dalaning turli qismlarida kultivator tishlarining kerakli qattiqligini olish va bu bilan elastik tishlarning qattiqligini sozlash vaqtini qisqartirish mumkin va yerga ishlov berish sifatini oshirish madsad qilib qoʻyilgan.




1.3.5-Rasm kombinatsiyalashgan ishchi organlarni sinash stendi

Regulyatorning ishlashini tekshirish uchun tuproq kanali va ishchi aravaga oʻrnatilgan laboratoriya birligi ishlatilgan.

Ixtiro qishloq xo'jaligi texnikasi sohasiga, xususan, tuproqqa ishlov beruvchi asbob-uskunalarining ish qismlarini o'lchash konstruksiyalariga tegishli, tuproq kanallaridan foydalangan holda o'rganish uchun mo'ljallangan. Qishloq xo'jaligi mashinasining ishchi tanasiga gorizontaal yo'nalishda ta'sir qiluvchi kuchlarni o'lchashda soddalashtirilgan dizayn va yuqori aniqlik mavjud bo'lgan XX asr stendi.

Mavjud tuproq kanali etakchi va boshqariladigan shoxlari bo'lgan tizimi bilan boshqariladigan ramka va tenzometrli harakatlanuvchi vagonni o'z ichiga oladi. Tuproq kanali uchta joylashgan shar bo'g'inlari bo'lgan yig'ish paneli bilan jihozlangan, tizimning oldinga va teskari shoxlariga biriktirilgan. Harakatlanuvchi aravachaning romiga qattiq mahkamlangan tenzometrning erkin uchi yig'uvchi o'rta ilmog'iga biriktirilgan bo'lsa, tenzometrni mahkamlash uchun ilgak uning simmetriya o'qida joylashgan.



1-Aravacha yurishi uchun g'ildirak yo'lagi, 2-metal arqon o'rash uchun baraban, 3-aylantirish dastagi 4-metal simni aylantirish roliklari, 5-aravacha, 6-metal sim, 7-aravachaning metal simni birlashtirish birikmasi



1.3.6 Rasm Diskli ishchi organlarni sinash stendi

1-tuproq kanali; 2- tortish va tashish aravachasi; 3-eksperimental konkida uchish maydonchasi; 4-qalqon boshqaruv; 5 tortish stantsiyasi



1.3.7-rasm kichik tuproq kanali aravacha

Toshkent davlat agrar universiteti mexanizatsiya fakultetida joylashgan kichik tuproq kanali aravachasi. UzAvtosanoat aksiyadorlik jamiyati tomonidan yasalgan bo'lib hozirgi kunda ilmiy tadqiqotlar va laboratoriya tajribalari o'tkazilmoqda. Kichik tuproq kanali aravachasi relis ustida harakatlanadi va masofasi 12 metrni tashkil qiladi. Kichik tuproq kanali aravachasi elektr toki yordamida harakatga keltiriladi va 10 kVt quvvatga ega bo'lgan elektrodvigatel bilan jihozlangan, bundan tashqari ishchi organlarni o'rnatish mexanizmini rostdash uchun gidroslindr o'rnatilgan bo'lib ishchi organlar o'rnatish va uzish bemaol xavfsiz bo'lishi taminlangan.

Yuqorida keltirilgan qiyosiy parametrlar asosida quyidagilarni tahlil qilishimiz mumkin. Kichik tuproq kanali aravachasi asosan Rossiya, Ukraina va boshqa Yevropa davlatlarida ko'p ishlatilmoqda ushbu hududlarning o'rta osiyo davlatlaridagi iqlim va tuproq sharoitlariga mos kelmasligi. Ushbu agregatlarning tannarxi qimmatligi va ularni xorijdan olib kelishdagi yo'l xarajatlari va boshqa iqtisodiy harajatlarning ko'pligidir. Ushbu agregatlarning massasi va gabarit o'lchamlarining kattaligi sababli yonilg'i va energiya sarfining ko'p talab qilishi kamchiligi deb qabul qilingan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari

Tadqiqot ishining maqsadi;

Kichik tuproq kanali aravachasini takomillashgan konstruksiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- hozirgi kunda mavjud kichik tuproq kanali bo'yicha stendlarni tahlil qilish.

- kichik tuproq kanaliga tasir etuvchi omillarni hisobga oluvchi nazariy tadqiqotlar olib borish.
- asoslangan parametrlil kichik tuproq kanali aravachasi konstruksiyasini ishlab chiqish.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Hozirgi kunda mamlakatimizda kichik tuproq kanali aravachasining turli ishchi organlar uchun turli xil kichik tuproq kanali aravachasini ko'rish mumkin. Natijalar shuni ko'rsardiki yangi konstuksiyali takomillashgan kichik tuproq kanalida sinovlar va tajribalarni tezlashtirishda mehnat sarfi va iqtisodiy va texnologik xarajatlarni kamaytirishga olib keladi,

Yuqorida o'tkazilgan tahlillar asosida kichik tuproq kanali aravachasining konstruktiv sxemasi tanlab olindi

II-BOB. KICHIK KICHIK TUPROQ KANALI ARAVACHASI SXEMA VA PARAMETRLARINI ASOSLASH BO‘YICHA NAZARIY VA EKSPERIMENT TADQIQOTLAR

2.1-§. Dala tuprog‘ining fizik-mexanik xossalari

Tuproqning namligi, qattiqligi va zichligi uning asosiy fizik-mexanik xossalari bo‘lib yerlarni takroriy ekinlar ekish uchun tayyorlashda ular kombinatsiyalashgan agregatning tuproqqa ishlov beradigan ishchi organlarining ish sifati, unumi hamda energiya hajmdorligiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Tuproqning namligi unga ishlov berishda sarflanadigan energiya miqdori hamda bajarilayotgan ish sifatiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Tuproqning namligi yuqori bo‘lsa u ishchi organlariga yopishib qolishi natijasida energiya sarfi ortadi, yetarli darajada uvalanmaydi. Bundan tashqari tuproqni ishchi organlari oldiga uymalanib qolishi natijasida agregatning ish jarayoni buziladi. Namlik kam bo‘lgan miqdorda ishlov berilgan qatlamda katta- katta kesaklar hosil bo‘ladi. Tuproq namligi sug‘oriladigan bo‘z tuproqlarda 16-18 %, o‘tloqli botqoq tuproqlarda esa 18-20 % atrofida bo‘lganda u yetilgan bo‘ladi va shudgorlanayotgan tuproq yaxshi uvalanadi hamda kam qarshilik ko‘rsatadi. Tuproqning bunday holati yetilganligi yoki tobiga kelganligi dep ataladi. Tuproqning namligi olingan namunalarni 105° haroratda 6 soat davomida qurutish usuli bilan quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi

$$W=m_1*m_2/m_3*100 \%$$

bunda W – tuproq namligi, %; m_1 – nam tuproqni stakan bilan massasi, kg; m_2 – quruq tuproqni stakan bilan massasi, kg; m_3 – quruq tuproq massasi, kg.

Tuproqning qattiqligi asosan uning namligi va mexanik tarkibi, undagi organik moddalar miqdori, yetishtirilgan ekin turi, oldingi shudgor chuqurligiga bog‘liq bo‘ladi. Namlikning kamayishi uning uning qattiqligi oshishiga olib keladi hamda mexanik tarkibi bo‘yicha yengil tuproqlarning qattiqligi o‘rtacha og‘ir va og‘ir tuproqlarga nisbatan kam bo‘ladi. Tuproq qattiqligi BICXOM da ishlab chiqarilgan qattqlik o‘lchash asbobida o‘tkirlanish burchagi 22° - 30° va ko‘ndalang kesimining yuzi 1 sm^2 bo‘lgankonussimon uchlikni qo‘llagan holda aniqlanadi. [3; 8-18-b.].

Tuproq zichligi uning fizik va biologik xususiyatlarini aniqlovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Tuproq zichligi $1,1\text{-}1,3\text{ gr/sm}^3$ oralig‘ida bo‘lganda qishloq xo‘jalik ekinlarini rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi [41; 8-12-b.].

Tajribada tuproqning zichligi quruq tuproq massasini namuna uchun olinganasbob (silindr) hajmiga nisbati asosida aniqlanadi. Tajriba dalasida tuproq namligi, qattiqligi va zichligini aniqlash uchun namunalar tuproqning 0-5 sm, 5-10 sm va 10-20 sm qatlamlaridan olinadi.

Tajribalar QXMITI tajriba xo‘jaligining bug‘doydan bo‘shagan dalalarida o‘tkazildi. Bug‘doy hosili yig‘ishtirib olingandan keyin yerlarga takroriy ekinlar ekish uchun tayyorlash davrida tuproqning 0-10, 10-20, 20-30 sm qatlamlaridagi namligi, qattiqligi va zichligi o‘rganildi.

Qishloq xo‘jaligi mashinalari agregatlari bilan tuproqqa minimal ishlov berish, ya’ni ortiqcha zichlanishi va strukturasi buzulishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda mehnat, energiya va yonilg‘i sarfini kamaytirish maqsadida yerlarga ag‘darmasdan va tasmali ishlov beradigan hamda

daladan bir o'tishda tuproqqa asosiy va ekish oldidan ishlov berishdagi barcha texnologik jarayonlarni bir biriga qo'shib bajaradigan mashina va agregatlarni ishlab chiqish va keng joriy etish dolzarb masaladir.

Bunday agregatlarni parametrlarini asoslashda dalaagrafoni, tuproqning fizik-mexanik xossalari katta ahamiyatga ega. Shuni hisobga olgan holda bug'doy hosili yig'ishtirib olingan dalalarda tuproq fizik-mexanik xossalari, yani egat profili bo'yicha tuproq qattiqligi Toshkent viloyati Yangi yo'l tumanidagi UZMEI dala sharoitida olingan natijalar.


Olingan natijalar 2.1.1-jadvalda keltirilgan. Olingan natijalar asosida ochiq yerga va g'o'za qatorlari orasiga ekilgan bug'doy dalalari uchun egat profillarida belgilangan nuqtalar bo'yicha gistogrammalar qurildi (2.1-rasm). Olingan natijalar asosida, g'o'za qatorlari oralariga ekilgan bug'doy dalasida ochiqqa ekilgan bug'doy dalasiga nisbatan tuproqning qattiqligi nisbatan kamroq ekilgani aniqlandi. Takroriy ekin ekish uchun g'o'za qator orasiga ekilgan bug'doy dalasi afzalroq ekanini ko'rsatdi [43; 51-52 b., 44; 5770-5779-b., 45; 275-282 b.]. Shuningdek qishloq xo'jalik ekinlarini pushta hamda egatlarda yetishtirishning energiya-resurs-suvtejamkor texnologiyasi va uni amalga oshiruvchi kombinatsiyalashgan agregat bilan tuproqqa minimal ishlov berish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari kuzgi bug'doydan bo'shagan dala egat profil tuprog'ining zichlik ekish va ishlov berishdan oldin 0-10 sm gacha, 10-20 sm va 20-30 sm qatlamlaridatadqiq etilgan (2.1-jadval). Natijada egat profilining yuqori qismida zichlik past bo'lishini ko'rsatdi.

2.1.1-jadval

Egat profili bo'yicha belgilan- gan nuqtalar	Ochiqqa ekilgan bug'doy dalasi	G'o'za qator orasiga ekiladi- gan bug'doy dalasi	Ochiqqa ekilgan bug'doy dalasi	G'o'za qator orasiga ekiladi- gan bug'doy dalasi	Ochiqqa ekilgan bug'doy dalasi	G'o'za qator orasiga ekiladi- gan bug'doy dalasi	Ochiqqa ekilgan bug'doy dalasi	G'o'za qator orasiga ekiladi- gan bug'doy dalasi
	Tuproq qattiqligi, sm							
	0-10		10-15		15-20		20-25	
	Qattqlik ko'rsatgichlari, MPa							
I	1,88	3,61	2,20	3,85	2,23	3,85	2,43	3,86
II	3,15	2,27	3,19	2,6	3,19	2,6	3,19	2,61
III	3,29	2,84	3,29	3,055	2,23	3,055	3,29	3,06
IV	2,2	1,0	2,57	2,28	2,85	2,28	2,98	2.14
V	1,84	2,76	2,21	3,18	2,41	3,18	2,41	3,19
VI	2,47	2,8	2,49	3,025	2,56	3,025	2,71	3,03


Bundan tashqari ko'p yillik tuproqqa ishlov berishning resurstejamkor agrotexnologiyalari bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar [23; 52-72-6.] shuni ko'rsatadiki, ularni tuproqqa agrofizik va agrokimyoviy xossalari ta'siri mexanik tarkibining o'zgarishi tuproqdagi namlikning bu'lanishi va suv o'tkazuvchanlik xususiyatlari takroriy ekinlarni yetishtirishda tuproqqa ishlov beruvchi yangi agregatlar ishlab chiqarishni taqazo etadi.

2.2 § Kichik tuproq kanali aravacha stendining sxema va parametrlarini asoslash bo'yicha matematik statistik eksperiment tadqiqotlar olib borish.



2.2.1-rasm Yangi ko'rinishdagi Kichik tuproq kanalli aravacha konstruktiv ko'rinishi: 1-g'ildirak, 2-korpus, 3-220V li elektrodvigatel, 4-380V elektrodvigatel 5-reduktor, 6-zanjirli uzatma, 7-ishchi organlarni ko'tarish mexanizmi 8-tasma

TO ning eksperimental tadqiqoti maqsadi assosida bir yoki bir necha qidirilayotgan bog'liklik (maqsad funsiya) larini aniqlash. MD TOning IMni tuzish



Obyekt informatsion modeli

Boshqariluvchi kirish faktorlar

Bu yerda:

W , – maqsad funksiyasi;

X_n - boshqariluvchi kirish faktorlari;

Z_n - boshqarilmaydigan kirish faktorlari;

H_i - nazorat qilinmaydigan, boshqarilmaydigan faktorlar;

Maqsad funksiyasi

W – stendda turli tipdagi tuproqqa ishlov beruvchi ishchi organlarning ish unumdorligi, %.

Boshqariluvchi kirish faktorlar

X_1 - Aravachaning gabarit o'lchamlari, mm

X_2 - Ishchi organlarning qamrash kengligi, mm

X₃- Ishchi organlar soni , ta

X₄- Ishchi organlarning oʻrnatish tizimi

X₅- Aravacha tezligi ,m/c

X₆- Yuritma turi

X₇- Ishchi organning ishlov berish chuqurligi, mm.

Boshqarilmaydigan kirish faktorlar

Z₁- Ctendda sinalayotgan ishchi organlarning qarshiligi , N

Z₂- Energetik oʻlchash qurilmalari, N

Z₃– Tuproqning fizik mexanik xossalari

Reglamentlangan kattaliklar

H₁- ishchi organlarga qoʻyiladigan agrotexnik talablar

TO ni optimallashtirish parametriga taʼsir qilayotgan faktorlarning eng taʼsirchanlarini << Ekspertlar soʻrovnomasi anketasi >>ni tuzish va ular bilan muloqat qilish va anketalarni toʻldirish.

SOʻROVNOMA

Hurmatli_____

Sizdan shu sohaning eksperti sifatida “YUTT” kafedrasida 102M-21 guruhi magistranti _____ning magistrlik dissertatsiya ishi tadqiqot obyekti **“Kichik tuproq kanalli aravachasi”** ning chiquvchi kattaligi **“stendda turli tipdagi tuproqqa ishlov beruvchi ishchi organlarning ish unumdorligi”** ga taʼsir etuvchi omillar salmoqdorligini “10 ballik tizim” da baholab berishingizni soʻraymiz. Yordamingiz uchun oldindan minnatdorchilik bildiraman.

Ilmiy rahbar _____ (Ilmiy unvoni, Ismi, familyasi, otasining ismi)

Fan o'qituvchisi _____ (Ilmiy unvoni, Ismi, familyasi, otasining ismi) Ilova
qilinadi:

1. Tadqiqot ob'ektining sxemalari va tavsifi (1 bet);
2. Tadqiqot ob'ektining informatsion modeli (1 bet);
3. Ekspert so'rovnoma anketasi (1 bet).

Namuna uchun quyidagi ekspertlar qatnashishdi:

T.f.d.prof. Abduazimov.A.D

T.f.d.prof.Rizaev A.A

T.f.n dos Alimova F.A

T.f.n dos Rautov Sh.T

T.f.f. dok Omonov N.

T.f.f.dok Saidova M.T

T.f.f.dok Primqulov B.Sh

Ekspert so'rovnoma anketasi

	Faktorlar	10 ballik tizim bo'yicha baholash
	X_5 Aravacha tezligi , m/c	
	X_3 Ishchi organlarning soni , ta	
	Z_3 Tuproq fizik mexanik xossasi (tuproq qattiqligi, zichligi, namligi, tuproq turi)	
	X_2 Ishchi organning qamrash kengligi , mm	
	Z_2 Energetik o'lchash qurilmalari, N	
	X_6 Kichik tuproq kanalli aravachasining yuritmasi turi	
	X_7 Ishchi organning ishlov berish chuqurligi, mm.	

2.2.2-jadval faktorlarning tasir darajasi	Faktorlar	Ekspertlar							
		1	2	3	4	5	6	7	
		Abdazimov A	Rizaev A	Alimova F	Ravutov Sh	Omonov N.	Saidova M	Primqulov B..	Σ
1	Aravacha tezligi , m/c	6	7	7	9	6	3	7	45
2	Ishchi organlarning soni, ta	5	6	8	9	8	8	7	51
3	Tuproq fizik mexanik xossasi (tuproq qattiqligi, zichligi, namligi, tuproq turi)	5	7	7	5	7	7	8	46
4	Ishchi organning qamrash kengligi , mm	5	8	7	5	9	6	7	47
5	Energetik o'lchash qurilmalari	7	5	5	7	5	3	3	35
6	Kichik tuproq kanalli aravachasining yuritmasi turi	7	6	9	5	8	3	7	45
7	Ishchi organning ishlov berish chuqurligi, mm.	7	7	7	7	7	3	3	41

Ekspremental tadqiqotlar o'tkazishda eng katta ta'sir etuvchi faktorlarni tanlab olish nihoyatda ahamiyatlidir. Negaki bu eksperimental tadqiqotlarni amalda samarali bajarishni taminlaydi. Mazkur ishda vazifaga o'xshash tadqiqotlar bajarilgan shu bois axborotlarni sistemalashtirish lozim. Eng avval sonini kamaytirish imkonini ko'rib chiqish kerak edi. Biz bu masalani qisman bajardik. Keyingi bosqich boshqariladgan faktorlarning eng ta'sir qiluvchanligini tanlab olish ko'rib chiqamiz. Matematik model real obyektini (MTA) sifat ko'rsatkichlarini zamonaviy informatsion tenglamalar asosida aniqlash uslubiyati va vositalari oadekvat ifodalash mumkin, faqat barcha faktorlar hisobga olinsa

barcha faktorlarni hisobga olish eksperimentlar hajmini haddan ziyod ko‘paytiradi va natijada texnologik, iqtisodiy cheklanishlar bajarib bo‘lmaydigan muammoga aylantirish mumkin. Shu sabab oldindan ahamyatsiz faktorlarni ajratib olish zarurati tug‘iladi. Amalda ko‘pincha ekspertlar baxolash metodi qo‘llaniladi. Faktorlarni otklika ta’sir xatoligiga ko‘ra qatorga joylashtirish mumkin. Joylashtirish tartibi ta’sir kattaligiga kamayishi bo‘yicha bajariladi. Ma’lumotlar mutaxasislar fikrini o‘rganish ularning fikrlari asosida bajariladi. Ekspertlar baxolash metodlari o‘rganilayotgan jarayon yoki obyekt haqidagi dastlabki barcha axborotlardan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Ekspertlar baxolash metodi 4 bosqichdan iborat.

1. Ko‘rib chiqilayotgan jarayon yoki obyekt haqida so‘rovnoma to‘ldirish.
2. So‘rovnoma ma’lumotlarga statistik ishlov berish va ranglar matritsasini tuzish.
3. Mutaxasislar fikrini birligini baxolash.
4. Ranglar diagramasini tahlil qilish va ahamyatsiz faktorlar tashlab yuborish.

Bu ma’lumotlar quyi jadvallarga keltirilgan. Faktorlarni solishtirma solmog‘ini aniqlash. Faktor solishtirma salmog‘i quydagi formuladan aniqlanadi.

$$a_{ij} = \frac{a'_{ij}}{\sum_{i=1}^n a'_{ij}}$$

bu erda a'_{ij} - faktorlar j -ekspert bergan ballar yig‘indisi. I-faktorga j -faktorga ekspertlar bergan barcha ballar natijasida xisoblangan solishtirma

salmog'lik koeffitsientini yig'indisi.; Bunda a'_{ij} - og'irlik koeffitsienti i -
 tayinlangan faktor hisoblanadi; j -mutaxassis;

$$\sum_{i=1}^n a'_{ij} - n \text{ ta}$$

faktorlarning barcha salmoqligi koeffitsientlarining yig'indisi,
 j -mutaxassis tomonidan tayinlanadi.

$$A_{25}=8/68=0,117$$

Har bir ekspert uchun normallashtirilgan salmoqdorlik koeffitsientlarining summasi uning ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymatlarga yaqinligini tavsiflaydi (4.2-jadval). Faktorlarning o'rtacha ahamiyatini aniqlash (faktor qiymatlari yig'indisi / jami ekspertlar soni).

Misol: $0.566/9=0,062$

2.2.3–jadval. Amaldagi o'lchovlarning normallashtirilgan koeffitsientlari

Faktorlar	1	2	3	4	5	6	7	
Aravacha tezligi , m/s	0,109	0.118	0.109	0.142	0.088	0.073	0.122	0,109
Ishchi organlarning soni , ta	0.09	0.101	0.125	0.142	0.117	0.195	0.122	0,125
Tuproq fizik mexanik xossasi (tuproq qattiqligi, zichligi, namligi, tuproq turi)	0.09	0.118	0.109	0.079	0.102	0.170	0.140	0.116
Ishchi organning qamrash kengligi , mm	0.09	0.135	0.109	0.079	0.132	0.146	0.122	0,085
Energetik o'lchash qurilmalari	0.127	0.084	0.078	0.111	0.073	0.073	0.052	0.108
Kichik tuproq kanalli aravachasining yuritmasi turi	0.127	0.101	0.140	0.079	0.117	0.073	0.122	0.099
Ishchi organning ishlov berish chuqurligi, mm.	0.127	0.118	0.109	0.111	0.102	0.073	0.052	0.095

Ekspert xulosalarining muvofiqligini baholash uchun muvofiqlik koeffitsienti ishlatiladi. J -mutaxassis tomonidan o'rnatilgan og'irlik koeffitsientlarining qiymatlari va ularning har birining o'rtacha qiymati o'rtasidagi algebraik farqlar bilan aniqlanadi. (4.3-jadvalga qarang).

$$K_j = \frac{1}{2} \sum_{i=1}^n |a_{ij} - \bar{a}_i| \quad (4.2)$$

Bu yerda $\bar{a}_i$ -faktorning o'rtacha qiymati:

$$|a_{ij} - \bar{a}_i| = 0,058 - 0,057 = 0,001$$

$$K_j = 0,5 * 0,309 = 0,1545$$

2.2.4-jadval. Moslik koeffitsientini aniqlash

	$ a_{ij} - \bar{a}_i $						
	1	2	3	4	5	6	7
1	0	0,009	0	0,033	0,021	0,036	0,013
2	0,037	0,026	0,002	0,015	0,01	0,068	0,005
3	0,025	0,003	0,006	0,036	0,013	0,055	0,025
4	0,026	0,019	0,007	0,037	0,016	0,03	0,006
5	0,042	0,001	0,007	0,026	0,012	0,012	0,033
6	0,028	0,007	0,032	0,029	0,009	0,032	0,014
7	0,028	0,019	0,01	0,012	0,003	0,026	0,047
$K_j = \frac{1}{2} \sum_{i=1}^n a_{ij} - \bar{a}_i $	0,094	0,05	0,05	0,102	0,056	0,15	0,1075


Tajriba davomida o'rtacha og'ish:

$$K = \frac{\sum_{j=1}^N K_j}{N} = 0,097$$

bunda N – ekspertlar soni. Endi konkordatsiya koeffitsientini aniqlaymiz:

$$D = 1 - K$$

$D = 1 - 0,088 = 0,9$ Hisob-kitoblar natijalariga ko'ra topilgan kattaliklar 90% mos kelyapti. Demak, ekspertlar to'g'ri tanlangan



2.2.3-rasm Barcha faktorlar gistogrammasi

Ekspertlar so‘rovnomasi asosida olingan hisob-kitoblar natijasida faktorlar salmoqdorliklarining gistogrammasini ishlab chiqdik. Demak **“Kichik tuproq kanalli aravachasi”** ning chiquvchi kattaligi samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillar eng katta ta’sir ko‘rsatadigan faktorlar aniqlandi.

Xulosa:

1. Ishchi organlarning soni
2. Tuproq fizik mexanik xossasi (tuproq qattiqligi, zichligi, namligi, tuproq turi)
3. Aravacha tezligi

«Ekspert usulida tadqiqot obyektni optimallashtirish parametrlariga eng ko‘p ta’sir etuvchi omillarni aniqlash» optimallashtirish parametrlariga ta’sir ko‘rsatishning ikkita muhim omili tanlangan.

2.2.5-jadval. Faktorlarning variatsiyalash darajalari va intervallari.

Faktorlar	Haqiqiy belgilanishi	Haqiqiy faktorlarning ta’sir darajasi		Belgilanish kodi	Kodlangan faktorlarning ta’sir darajasi	
		Pastgi	Yuqorigi		Pastgi	Yuqorigi
